

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
INGLIZ TILI AMALIY KURSI KAFEDRASI**



Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida Jizzax davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi tomonidan **“Globallashuv sharoitida chet tillarni o‘qitishning turli xil yondashuvlari va masalalari”** mavzusida sohada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning dolzarb muammolari, amaliyotda erishilgan yutuqlar va belgilangan vazifalarni globallashuv sharoitida chet tillarni o‘qitishning turli xil yondashuvlarini, bajarish mexanizmlarini muhokama qilish maqsadida **Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya** o‘tkaziladi.

Konferensiyada quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha sho‘balar ish olib boradi:

- 1-sho‘ba.** XXI asrda chet tillarni o‘qitishning zamonaviy-innovatsion usullari.
- 2-sho‘ba.** Globallashuv sharoitida chet tillarni o‘qitishda kreativ o‘qitish usullaridan foydalanish.
- 3-sho‘ba.** Chet tillarni o‘rganishning pedagogik va psixologik asoslari.
- 4-sho‘ba.** Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatlararo muloqat masalalari.

Konferensiyaning ishchi tillari: o‘zbek, rus, ingliz

Konferensiyada ishtirok etish shakllari: sirdan qatnashish, devoriy doklad, og‘zaki doklad

Qatnashish shartlari: konferensiyada ilmiy-tadqiqot, ta‘lim muassasalari rahbarlari va xodimlari, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, erkin izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar ishtirok etishi mumkin.

Konferensiyaning tashkiliy qo‘mitasi tomonidan qonferensiyaga taqdim etilgan materiallarni nashr etish ko‘zda tutilgan. Konferensiyaning nashr etilgan to‘plami og‘zaki dokladi bilan ishtirok etadigan ishtirokchilarga taqdim etiladi. Konferensiyada sirdan yoki de‘voriy doklad bilan qatnashgan ishtirokchilarga ma‘ruzalar to‘plamining *.pdf varianti va elektron sertifikat taqdim etish ta‘minlanadi.

Konferensiyaga taqdim etiladigan materiallarni rasmiylashtirish qoidalari:

1. Materiallar hajmi 3-5 bet hajmida bo'lishi kerak.
2. Matn A4 formatdagi oq qog'ozga, barcha tomonlari 2,5 sm chegaralar qoldirib, joylashtiriladi va elektron shaklda taqdim etiladi. Doklad materiallari raqamlanmaydi va Microsoft Word redaktorida Times New Roman shriftida 14 o'lehamda (interval 1)*.doc formatda rasmiylashtiriladi. Fayl nomi lotin yozuvida birinchi muallif familiyasi bilan nomlanishi shart (Xamidova, doc).
3. Material nomi bosh (katta) harflar bilan, ko'chirilmasdan, markazga yoziladi. Keyin kichik harflar bilan muallifning (mualliflarning) familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatiladi. Doklad muallifining ismi-sharifi va familiyasining tagiga chiziladi. Familiyalar ostiga ish joyi, lavozimi, shahar, mamlakat ko'rsatiladi. Shundan so'ng 1,25 abzasga e'tibor bergan holda matn joylashtiriladi. Matnga diagramma, gistogramma, foto rasmlar, jadvallar berilishi mumkin. Diagramma, foto rasmlarning barchasi matnida rasm sifatida ketma-ketlik inobatga olingan holda rasmiylashtiriladi. Rasmlar matni ob'ektning ostiga markazlashgan xolda, jadvallar matni esa ob'ektning yuqori chap tomonidan rasmiylashtirilib beriladi.
4. Matnda adabiyotlarga havolalar tik qavs ichida havola olingan manba tartib raqami va ilmiy asarning beti ko'rsatilgan [1,93] holda rasmiylashtiriladi.
5. Material oxirida "Foydalanilgan adabiyotlar" ro'yxati tartib raqami bilan alifbo tartibida ***Bayon etilgan ma'lumotlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi, fakt va ma'lumotlarning aniqligiga muallif (mualliflar) mas'ul hisoblanadi.***

Materiallarni tashkiliy qo'mitaga yuborish muddati va chop etish to'lov hajmi:

To'plamda e'lon qilinadigan materiallar uchun 50.000 (ellik ming) so'm to'lanadi. Konferensiya materiallarining o'z vaqtida nashr etilishini ta'minlash maqsadida Sizdan materiallarni **2022 yilning 15 may kunigacha** jo'natishingizni so'raymiz.

Konferensiya materiallari qabul qilinadigan manzillar:

Tel raqam: +99893 856-00-62

Telegram: @SevaraBaxtiyorovnaMusayeva

Elektron pochta: stronghamidov@inbox.ru

Manzil: 130100, O'zbekiston Respublikasi, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 4- uy. Tel.: +(99872) 226-13-56, Faks: +(99872) 226-46-56,
E-mail: jiz.jdpi@exat.uz

NAMUNA

ILMIY TEZIS NOMI ILMIY TEZIS NOMI

Muallif(lar)ning familiyasi, ismi, sharifi

Tashkilot (muassasa) nomi, lavozimi, shahar va davlat nomi

Annotation

Keywords: (5-7 ta so'z).

Asosiy matn. (3-5 bet) Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. Tekst. [1, 93].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tekst. Tekst. Tekst.
2. Tekst. Tekst. Tekst.